

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA
XORIJ TILINI O‘QITISH METODIKASI**

Soatova Sevara Komiljon qizi

Samarqand davlat chet

tillari instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Nilufar Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xorijiy tilni o‘rgatish va zamonaviy usullardan foydalanish metodikalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: aralash texnika, zamonaviy innovatsion metodlar, qiziqarli o‘yinlar, pantomima.

Annotation: This article shows methods of teaching a foreign language to elementary school students and using modern methods.

Key words: mixed technique, modern innovative methods, interesting games, pantomime.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasiga katta e’tibor berildi va ko‘plab o‘zgarishlar , yangiliklar kiritildi. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yildan yilga oshib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz aytganidek: “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallahsga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”.

Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda ijobiylar o‘rganishlariga sabab bo‘lgan qarorlardan biri bu: O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2012- yil 10-dekabrdagi chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875- soni qaroridir . Ushbu qarorga muvofiq boshlang‘ich

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘quvchilarini xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularni chet tillarni majburan emas o‘zлari qiziqib o‘rganishlarini ta‘minlash jarayonlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek kichik yoshdagi bolalar, asosan, birinchi sinfga qadam qo‘yganlari o‘rganayotgan narsalariga grammatik va mazmuniy jihatdan yondasha olishmaydi. Shu sababdan birinchi sinf o‘quvchilariga xorij tilini turli xildagi qiziqarli mashg‘ulotlar va innovatsion usullardan foydalangan holda, ikkinchi sinfdan boshlab esa ularni harfini va mazmunini o‘rgatish lozim.

Bu usullar bosqichma bosqich amalga oshirsa ularning qiziqishlari yanayam ortib boradi va tilini tez va oson o‘rganadi.

Hozirgi kunda har qanday sohada bironta xorijiy tilni bilish zaruriyati ortib bormoqda. Shuningdek, har qanday yoshdagi kishilar xorij tilini o‘rganmoqda. Bu degani, bugungi kunda xorijiy tillarni bilmasdan yashash qiyinlashmoqda. Olimlarning aniqlashicha kichik yoshdagi bolalar kattalarga nisbatan xorijiy tilni tez o‘rganishadi. Ularning eslab qolishi kattalarnikidan ancha yaxshi ekanligi isbotlangan.

Boshlang‘ich sinfda o‘qiydigan 6-7 yoshli bolaalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yod oladi. Shuning uchun bolalar maktabga qadam qo‘ygandanoq ularni charchatib qo‘ymasdan turli o‘yinlar orqali o‘rgatish metodikasi ancha samarali hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarga xorij tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish uchun bir nechta usullardan foydalanish mumkin.

Ko‘rish orqali eslab qolish. Bu usulda ularga turli multfilmlar qo‘yib berish lozim. Masalan, harflar, sonlar, mevalar va boshqa turli xildagi qiziqarli mavzularga oid multfilmlar qo‘yib berilsa, ular ko‘rish orqali eslab qo‘ishadi.

Qo‘sinq va she’rlar orqali o‘rgatish esa ularning gapirish qobiliyatining yanada oshishiga sabab bo‘ladi.

Aralash texnika ham mavjud bo‘lib bu usulda bolalar bir xil usul orqali o‘rganishdan zerikib qolishmaydi. Masalan, bolalar bu usulda qo‘sinq aytishi, rasm chizishni, o‘yinlar o‘ynashi, qiziqarli multfilmlar ko‘rishi mumkin. Bu usul boshqalariga nisbatan ancha samarali hisoblanadi.

“Pantomima” orqali o‘rgatish esa ularning tasavvur olamini kengaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga xorijiy tilni majburiyat sifatida emas ularni qiziqtirib o‘rgatish lozim hisoblanadi. Ular maktabga ilk qadam qo‘ygandanoq zeriktirib charchatib qo‘ymaslik kerak.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” 2020
3. Bekmuratova U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalish” Toshkent-2012
4. Toliboboeva S. J. “TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH” Science and Education, 1 (Special Issue 2) 2020
5. Toliboboyeva Sh. Ingliz tilini o‘qitishdagi zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. Young Scientist, 19 (309), 581-582.